

**BOSHQARUV HISOBI TIZIMIDA BYUDJETLASHTIRISHNING
TASHKILIY-USLUBIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH***O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi**Fiskal institute magistranti**Shamsiddinova Shoxida Shamsiddinovna**Shamsiddinova_sh@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshqaruv hisobini tashkil qilishdagi muammolar, ushbu muammolarning hal qilish yo'llari ko'rsatib o'tilib, boshqaruv hisobining nazariy, boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirishning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish, amaliy va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Byudjet va byudjetlashtirish tushunchalari tahlili, boshqaruv hisobi va byudjetlashtirishning o'zaro bog'liqligi, byudjetni shakllantirishda hisob ob'ektlarining umumiy strukturasini shakllantirish tartibi, daromad va xarajatlar byudjetining shakllanishi tadqiq qilingan hamda ishlab chiqarish korxonasining daromad va xarajatlari byudjetining namunasi tavsiya etilgan. Bundan tashqari byudjetlarni tuzilishi umumiy ko'rinishi tahlil qilingan bo'lib, metallurgiya sanoati korxonasi uchun bosqichlar asosida bosh byudjetni shakllantirish tartibi taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv hisobi, byudjet, moliyaviy hisob, byudjetlashtirish, moliyaviy natija, moslashuvchan byudjet, daromad va xarajatlar byudjeti, ichki nazorat, javobgarlik markazlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, xarajatlar hisobi.

Annotation: In this article, the problems in the organization of management accounting, the ways of solving these problems are outlined, and the theoretical, organizational and methodological aspects of budgeting in the management accounting system are studied. The analysis of the concepts of budget and budgeting, the interconnection of management accounting and budgeting, the procedure for forming the general structure of accounting objects in the formation of the budget, the formation of the budget of income and expenses were researched and an example of the budget of income and expenses of a production enterprise was recommended. In addition, an overview of the structure of budgets has been analyzed, and the procedure for the formation of a general budget on the basis of stages for a Metallurgical Industry Enterprise has been proposed.

Keywords: Management accounting, budget, Financial Accounting, Budgeting, Financial Result, flexible budget, income and expenses budget, internal control, centers of responsibility, administrative-management costs, expense accounting.

KIRISH

O‘zbekistonda byudjet jarayonida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar davlat byudjetida moliyaviy resurslar oqimini tartibga solish, byudjet taqchilligini tartiblash, byudjet tasnifini takomillashtirish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Korxonalarida boshqaruv hisobi tizimi o‘ziga xos tashkiliy-texnologik xususiyatlarga bog‘liqligi bilan farqlanadi. Shu bilan birga mazkur tarmoq korxonalari uchun boshqaruv hisobining umumiyligi metodologik masalalari ham mavjud bo‘lib, ular jumlasiga byudjetlashtirishni joriy etish ham kiradi.

Byudjetlashtirishning mohiyatini chuqur anglash uchun esa avval uning boshqaruv hisobidagi o‘rni va rolini aniqlab olish zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda bu borada haligacha munozaralar davom etmoqda. Ularni tahlil qilish iqtisodchi olimlar byudjetlashtirish boshqaruv hisobining ajralmas bir qismi, bazisi, metodi va elementi, metodining elementi sifatida ifodalayotganligini ko‘rsatmoqda.

Byudjetlashtirishga boshqaruv hisobining ajralmas bir qismi sifatida qarayotgan olimlar fikrlariga qo‘shilish mumkin, chunki boshqaruv hisobida boshqaruv maqsadlari uchun haqiqiy ma'lumotlardan tashqari, prognozlashtiriladigan ma'lumotlar va rejalashtiriladigan ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Shuning uchun ham byudjetlashtirish boshqaruv uchun o‘ta muhim bo‘lgan reja ma'lumotlarini yetkazib beruvchi quyi tizim sifatida paxta tozalash korxonalarida boshqaruv hisobining ajralmas qismi hisoblanadi¹.

Xalqaro amaliyotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda byudjetlashtirish boshqaruv hisobining tarkibiy qismi va yo‘nalishlaridan biri sifatida tashkiliyuslubiy ta’minlangan hamda amaliyotda qaror topgan.

Hozirgi kunga kelib, byudjetlashtirishning ahamiyati kun sayin ortib borayotganligi sababli iqtisodiy adabiyotlarda unga bag‘ishlangan turli qarashlar paydo bo‘lmoqda. Iqtisodiy adabiyotlar tahlili ularda byudjetlashtirish atamaci turlicha talqin qilinayotganligini ko‘rsatmoqda. Bizningcha ushbu atamani mohiyatini chuqur tushunib yetish uchun uning asosiy elementi – “byudjet”ni tadqiq etish kerak.

ADABIYOTLAR SHARI

Bu sohada ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda va turli nuqtai nazarlardan tadqiq etilmoqda. Masalan, tadqiqotchi Ye.R.Muxina byudjetni iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy va moddiy nuqtai nazardan tadqiq etgan.

Ularni o‘rganish shuni tasdiqlamoqdaki, hatto, iqtisodiy adabiyotlarda byudjet atamasi o‘rniga reja va smeta atamalari ishlatalayotgan hollar ham uchrab turibdi. Bu holat byudjet atamasining ma’nosini tushunishda chalkashlik va tushunmovchiliklarga olib kelmoqda. Iqtisodchilar orasida boshqaruv hisobini mohiyati, maqsadi, vazifasi,

¹ Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 556 b.

shuningdek, boshqa boshqaruv quyi tizimlari bilan aloqasi haqida umumiyl tushuncha mavjud emas.

Tanlangan tadqiqt mavzusi doirasida boshqaruv maqsadlarida buxgalteriya hisobi usullarini tizimlashtirish muammolari zamonaviy iqtisodiyotda boshqaruv hisobining mohiyatini va maqsadini uning tarkibida ichki nazorat va byudjetlashtirishni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Soha mutaxassislarini ilmiy ishlarini o'rganib, ushbu sohaning iqtisodiy ahamiyatini korxonalarning innovatsiyalarga intilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

O.Nikolaeva va T.Shishkovalarning fikricha, “boshqaruv hisobi korxona boshqaruvining barcha darajalarida ichki foydalanish uchun barcha hisob-kitob ma'lumotlarini qamrab oladi”. Ushbu olimlarning fikridan kelib chiqib, boshqaruv hisobini korxonaning axborot tizimining ajralmas qismi hisoblanadi deyish mumkin.

Iqtisodchi olim A.D.Sheremet boshqaruv hisobini quyidagicha talqin qiladi², “Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining quyi tizimi bo'lib, bir korxona ichida o'z boshqaruv xodimlarini korxona faoliyatini rejalshtirish, boshqarish va nazorat qilish uchun foydalaniladigan ma'lumot bilan ta'minlaydi”.

T.P.Karpova “boshqaruv hisobini tashkil etish kalkulyatsiya hisobi asosida yuzaga keldi, shuning uchun uning asosiy mazmunini kelgusida va joriy davrdagi ishlab chiqarish xaratjatlarini turli jihatlarini tasniflash” deb ta'kidlaydi.

Yu.A.Babaevning fikricha, “boshqaruv hisobi korxonada turli darajadagi boshqaruvchilar tomonidan qo'llaniladigan hisob ma'lumotlarini toplash uchun mo'ljallangan”.

N.P.Kondrakov boshqaruv hisobini prinsiplariga e'tibor qaratib, quyidagicha ta'kidlaydi: “boshqaruv hisobi – faoliyatni rejalshtirish, nazorat va boshqarish uchun korxona va uning tarkibiy bo'linmalarining iqtisodiy faoliyati to'g'risida ma'lumot toplash, tahlil qilish va taqdim etish uchun tashkil etilgan tizim”³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy izlanish davomida aniq faktlarga asoslangan holda ma'lumotlarni guruhlarga ajratish, shuningdek, indeks va normativ usulni inobatga olib, uning tuzilmasini o'rganish asosida ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni tahlil qilish, tahlil va sintez qilish, statistik ma'lumotlarni taqqoslash kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqt ishida umummetodologik usullardan – kuzatish, umumlashtirish, guruhlash va taqqoslash kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

² Дмитриев А.Е. Бюджетное управление: типичные ошибки // Экономика. Финансы. Управление. 2014. № 10. С. 91–99.

³ Пардаева Ш.А. Хўжалик субъектларида молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини такомиллаштириш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. www.interfinance.uz, 3-сон, 2021 йил, июнь.

Tadqiqotlarni ko'rsatishicha byudjetlashtirishda byudjet turini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega va u korxonalar faoliyatini o'ziga xos xususiyati, tanlagan strategiyasi hamda bozorning ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Bunda eng asosiysi byudjetlashtirishni joriy etish boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish uchun asos yaratilishiga olib kelishiga e'tibor qaratilishi kerak.

Amaliyotda byudjetlashtirishning hajmi, qamrovi va ko'lamiga ko'ra yoppasiga byudjetlashtirish, zarur darajadagi byudjetlashtirish, minimal darajada byudjetlashtirish, daromad va xarajatlarni byudjetlashtirish kabi turlari mavjuddir. Yoppasiga byudjetlashtirishda korxona tomonidan amalga oshiriladigan barcha funksiyalarni doimiy rejalashtirish nazarda tutiladi. Zarur darajadagi byudjetlashtirishda moliyaviy byudjetlarni hisob-kitoblari uchun ma'lum darajadagi operasion (moddiy, mehnat xarajatlari va boshqalar) byudjetlar tuziladi. Minimal darajada byudjetlashtirishda korxonada pul mablag'lari harakati, foyda va zararlar va proqnoz buxgalteriya balansi kabi moliyaviy byudjetlar tuziladi. Daromad va xarajatlarni byudjetlashtirishda esa faqatgina choraklarga bo'lingan yillik daromad va xarajatlar byudjeti tuziladi.

Fikrimizcha, byudjetlashtirish davri va darajasini tanlashda byudjetlarni aniqlashtirish bo'yicha mutanosiblikni o'rnatilishi va byudjet davri yetarli darajada uzoq va qisqa muddatli bo'lishiga erishish lozim. Tamoyillar byudjetlashtirish tizimi mazmunini belgilaydi va shu sababdan byudjetlashtirish tegishli tamoyillarga asoslanishi lozim.


Amaliyotni o'rganish korxonalarda byudjetlashtirishning joriy etishni samarali boshqaruv tizimisiz amalga oshirib bo'lmasligini ko'rsatdi. Shuning uchun bizningcha, byudjetlashtirish masalalari bilan doimiy faoliyat yurituvchi konsul'tativ guruh maqomiga ega bo'lgan alohida kengash – «Byudjetlashtirishni joriy etish va tahlil» kengashi shug'ullanishi lozim. tish va tahlil» kengashi shug'ullanishi lozim. Ushbu kengash tarkibiga korxonalarda iqtisodchi mutaxassislardan tashqari bosh muhandis, bosh mexanik, bo'lim boshliqlari (ustalar) va boshqalar kirishi kerak.⁴

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish korxonalarda byudjetlashtirishni joriy etish byudjetlashtirish haqidagi nizomga asoslanishi kerak, degan fikr ko'p uchrashini ko'rsatdi. Bizningcha ushbu nizomda, qo'shimcha ravishda ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va byudjetlarni shakllantirish tartibi mas'ul shaxslar va byudjet bajarilishi muddatlari ko'rsatilgan holda aks ettirilishi belgilab qo'yilishi lozim.

Byudjetlashtirish haqidagi nizomni ishlab chiqish bilan byudjetlashtirishni joriy qilish va tahlil kengashi shug'ullanishi zarur. Ushbu nizom byudjetlashtirishni samarali joriy etishni, amalga oshirish tartib va uni boshqaruv tizimidagi rolini hamda o'rnini

⁴ Хруцкий В.Е..Системы бюджетирования. Семь шагов по эффективной постановке бюджетирования. М.:Финансы и статистика, 2014.-176 с.


belgilab berishi kerak. Eng muhimi, «Byudjetlashtirish haqida»gi nizomda turli bo'g'in va maqsadlardagi byudjetlarni o'zaro aloqasiga asoslangan byudjetlashtirish va tahlilni amalga oshirish algoritmi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu talablarni hisobga olgan holda korxonalar uchun «Byudjetlashtirish haqida»gi namunaviy nizom loyihasi tavsiya etildi(1-rasm).



1-rasm. Byudjetlarni shakllantirish jarayonining bosqichlari⁵

Chizmadan ko'rinish turibdiki, byudjet jarayoni uzlusizligini ta'minlashning asosiy sharti byudjet va haqiqiy ma'lumotlarni taqqoslama tahlilini o'tkazishdan iboratdir. Undan tashqari, ushbu tahlil asosida kelgusi yil byudjeti ko'rsatkichlari shakllantiriladi. Umuman olganda mazkur tahlil bir vaqtning o'zida byudjet siklini boshlang'ich va yakuniy bosqichi hisoblanadi, shu bilan aylanib o'z holatiga qaytadi (shuning uchun ham sikl deb ataladi).

Yuqorida ta'kidlangan tartib-qoidalar, vazifa va tamoyillar hamda nizomga tayangan holda korxonalar amaliyotida byudjetlashtirishni samarali joriy etish uchun quyidagi uslubiy algoritm tavsiya qilinadi (2-rasm).



2-rasm. Korxonalarda byudjetlashtirish tizimini joriy etishning uslubiy algoritmi⁶

Byudjetlashtirishni joriy etishda dastlab korxonalarini yil davomida rejadagi daromadga erishishini ta'minlash kabi maqsad va vazifalari belgilab olinadi. Buning uchun tegishli moliyaviy tuzilmalar: «Byudjetlashtirishni joriy qilish va tahlil» kengashi tuziladi hamda korxonalarda faoliyat yuritayotgan zveno, brigada, sexlar va bo'linmalar xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan AVS-tizimida xarajatlarni hisobga olishning 4 ta darajasi asosida javobgarlik markazlari sifatida shakllantiriladi.

AVS hisob tizimi javobgarlik markazlari bo'yicha tannarx hisob-kitobini doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lib hisobga oladi va asosiy e'tiborini faoliyat turlari hamda funksional xizmatlarga qaratadi. Umuman, AVS tizimi faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar hisobini (xarajatlarning funksional hisobi) anglatadi.

Keyingi bosqichda byudjetlar tuziladi, ularning o'zaro mantiqiy bog'lanish tartibi belgilanib, byudjet reglamenti va hujjatlar aylanishi grafigi tasdiqlanadi. So'ngra byudjetlar mas'uliyat markazlari bo'yicha taqsimlanib, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari aniqlanadi va korxona direktori tomonidan tasdiqlanadi. Byudjetlashtirishdan ko'zlangan samaraga erishish maqsadida byudjetlar bajarilishi nazorat va tahlil qilib boriladi. Ushbu bosqichlar yuqorida ta'kidlangan ketma-ketlikda va samarali tashkil qilinsagina, korxonalarda byudjetlashtirishni joriy etishdan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, byudjetlashtirish rejorashtirishdan kengroq tushuncha bo'lib, u o'z ichiga rejorashtirish bilan birga me'yorlashtirish va prognozlashtirishni ham qamrab oladi. Ixtisoslikka oid adabiyotlarni o'rganish mazkur jarayonni ssenariy asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Muallif bu borada tadqiqotchi S.A.Sidorovning fikrini qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni paxta tozalash korxonalarida «Asosiy byudjetning barcha parametrlarini hisobkitob qilish uchun asos sifatida, nafaqat marketing tadqiqotlari va sotish byudjeti olinishi kerak, balki byudjetlashtirish ssenariysi tayyorlanishi lozim»⁷.

Ssenariy ma'lum maqsadli va samarali xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun tayyorlangan uslubiy ko'rsatmadir. Ssenariy assosini byudjetlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy shart-sharoitlar, me'yorlar, mezonlar va omillar tashkil etadi.

Xulosa

Maqolani yozish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

⁶ Israilov R.I., Maxsudov B.Yu. Boshqaruvin hisobi: o'quv qo'llanma. - T.: Namangan, 2020. 261b.

⁷ Сидоров К.В. Бюджетирование деятельности промышленных предприятий России. М.: Дело и сервис, 2014.-591 с.

1. “Boshqaruv hisobi” tushunchasi korxonani boshqarishda resurslardan oqilona foydalanishi, xodimlarning doimiy javobgarligini ta’minlash, qaror qabul qilish va amaldagi operasiyalar samaradorligini oshirish, xarajatlar hisobi va tahlilining murakkab tizimi, “ichki nazorat” tushunchasi belgilangan me’èrlarni nazorat qiluvchi kundalik ish (faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash), «byudjetlashtirish» ta’rifi faoliyatni nazorat qilish boshqaruv texnologiyasi, resurslarni boshqarishda ishlab chiqarishning har bir bosqichida intizomiy nazoratni kuchaytirishni kiritish asosida takomillashtirilgan.

2. Olib borilgan tadqiqotlar asosida boshqaruv hisobi milliy tizimlariga xos bo‘lgan, korxonalar boshqaruvi tomonidan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga to‘sinqlik qiluvchi, xarajatlarni hisobga olish, qabul qilinaётган qarorlarning boshqaruv tahlili bilan tavsiflanuvchi tahliliy ta’mnoti, byudjetlashtirish va ichki boshqaruv hisobotlarini shakllantirishdagi muammolar aniqlanib, metallurgiya sanoati korxonalarida boshqaruv hisobini yuritishning takomillashtirilgan uslubiyati taklif etildi.

3. Boshqaruv hisobi uchun korxonaning hisob siёsatini tuzilishi ishlab chiqilgan. Unga muvofiq, boshqaruv hisobi maqsadlari uchun mo‘ljallangan hisob siёsatini tuzilmasini uch qismga ajratildi: boshqaruv hisobining nazariy asosi (qoidalar), uslubiy asosi (tamoyillar), amaliy usullari (jaraёнlar). Hisob siёsatining yuqorida ko‘rsatilgan umumiyl tamoyillarini birlashtirish turli darajadagi boshqaruv xodimlari orasidagi boshqaruv hisobi haqidagi tarqoq bilimlarni birlashtiradi va ma’lum bir korxonada alohida boshqaruv hisobi uslubiyati uchun asos yaratadi.

1. Byudjetlashtirish moliyaviy rejallashtirish bo‘lib, korxonani samarali boshqarish uchun zarurdir. Byudjetlashtirish korxonaning joriy ko‘rsatkichlarini rejallashtirish va istiqboldagi ko‘rsatkichlarini bashorat qilish maqsadida turli xildagi byudjetlarni ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

2. Byudjetlashtirish tarmoq xususiyatiga ega bo‘lib, juda ko‘p omillarga bog‘liqdir. Shu boisdan byudjetlashtirishning muayyan modelini nafaqat tanlash, balki uni korxona xususiyatiga moslashtirish ham zarurdir.

3. Byudjetlashtirish turli xildagi byudjetlarni yaxlit va o‘zaro aloqadorlikda ishlab chiqilgandagina samarali hisoblanadi. Faqat shunday holatdagina korxonaning umumiyl moliyaviy-iqtisodiy holatini bilish mumkin bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

1. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 556 b.
2. Пардаева III.А. Хўжалик субъектларида молиявий натижаларнинг стратегик башқарув ҳисобини такомиллаштириш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. www.interfinance.uz, 3-сон, 2021 йил, июнь.

3. Abdinabi Kh. Pardaev, Umidjon U. Kostaev. The improvement of organizing strategic management accounting, Journal of Critical Reviews, 7(18), с. 718-721, ISSN-2394-5125 vol. 7, ISSUE 18, 2020.
4. Абдусаломова Н.Б. Харажатларнинг келиб чиқиши жойлари ва жавобгарлик марказлари бўйича бошқарув ҳисобини ташкил қилиш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий-электрон журнали. www.interfinance.uz, 1-сон, 2016 йил сентябрь.
5. Керимов В.Э. Стратегический учет. Учебное пособие. // В.Э.Керимов. – М.: Омега-Л, 2005. – 168 с.
6. Авлоқулов А.З. Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2019 йил. – 71 бет, 16-бет.
7. Амалий бошқарув ҳисоби. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. / А.К.Ибрагимов, Б.А.Хасанов, Н.К.Ризаев. – Т.: Молия, 2014. – 404 б., 187-197-бетлар.
8. Калонов М.Б. Корхоналарда даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳамда таҳлили методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2019 йил. 63-бет.
9. Тащназаров С.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2019 йил. 73-б.
10. Tashnazarov S. The main ways of the improvement of financial reports in the Republic of Uzbekistan (about balance sheet and the report of financial results). // Journal of Management Value & Ethica. ISSN: 2249-9512, Vol. 6, Oct-Dec. 16, №4. P. 109-119. GIFO. 565.
11. Дмитриев А.Е. Бюджетное управление: типичные ошибки // Экономика. Финансы. Управление. 2014. № 10. С. 91–99.
12. Захаров И.В. Программа внедрения процесса бюджетирования на предприятии // Экономика с.-х. и перераб. предприятий. 2008. № 11. С. 51 – 56.
13. Ивашкевич В.Б. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник / В.Б. Ивашкевич. -3-е изд., перераб. и доп. -М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2015. - 448 с.
14. Карпова Т.П. Учет, анализ и бюджетирование денежных потоков: Учебное пособие / Т.П. Карпова, В.В. Карпова. -М.: Вузовский учебник: НИЦ Инфра-М, 2013. -302 с.(153 с).

15. Савчук В.П. Финансовое планирование и разработка бюджетов. URL: <http://cfin.ru/management/budgeting/savchuk-6.shtml> (дата обращения: 01.02.2014).
16. Харитонова Е.Н. Основные концепции разработки бюджета экономического субъекта // Вопросы формирования эффективного финансового менеджмента. 2011. № 1. С. 48–49.
17. Хасанов Б.А., Хошимов А.А. “Бошқарув ҳисоби” дарслик. Т.2014й.
18. Хруцкий В.Е..Системы бюджетирования. Семь шагов по эффективной постановке бюджетирования. М.:Финансы и статистика, 2014.- 176 с.
19. Сидоров Н.Д. Современная теория и практика финансового менеджмента на предприятии. Томск:Изд-во Томского ун-та, 2014.-348 с.
20. Щиборщ К.В. Бюджетирование деятельности промышленных предприятий России. М.: Дело и сервис,2014.-591 с.
21. Israilov R.I., Maxsudov B.Yu. Boshqaruv hisobi: o'quv qo'llanma. - T.: Namangan, 2020. 261b.
22. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
23. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
24. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
25. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti